



**TARBIYA JARAYONING MOHIYATI, MAZMUNI, TARBIYA
TAMOYILLARI VA METODLARI**

Sobirova Marjona Shavkat qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Telefon raqami: +998975567071

Karimova Ozoda Rustamjon qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Boshlang‘ich ta’lim 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya jarayonlarining asosiy maqsadi va mazmuni nimalardan iboratligi, tarbiyaning ta’lim bilan uzviy bog‘liqligi, va o‘sib kelayotgan yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, tarbiyaning maqsadi, tarbiya jarayoni, shaxs tarbiyasi, pedagogik qarashlar xulq -odob qoidalari, tarbiya tamoyillari, metodlari.



Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir".

"Tarbiya-arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish singari ma'nolarni anglatadi". Tarbiya-hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalari: jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali" ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash; ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi. Jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. O'quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga



ega bo‘ladi. Abu Nasr Farobiyning ta’limotida komil inson muamosi u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa qurish, insonga baxt-saodat eshiklarini ochish vositalarni yaratish masalalari markaziy o‘rinni egallaydi tarbiyalanuvchilar muayyan darajada bilimni o‘zlashtira olmaydi. O‘quvchining yoshi ulag‘aygani sari bu faollik tobora ko‘proq mustahil xususiyatlarga ega bo‘lib boradi. Tarbiyalanuvchilar o‘zlari dunyo qarashni tarkib toptirishga, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga ko‘nikib boradilar.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalari: jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson kapitali”ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash; ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni - bu shaxsda muayyan ruhiy, aql, jismoniy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Shuningdek u insonning jamiyatda qanday o‘rin egallashi, kim bo‘lishi, insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va adabiy qadriyatlardir. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlovchi qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga ya’ni kelajak avlodga o‘tadi. Tarbiya haqida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy shunday deb yozadi: “Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Tarbiyaning ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma”.



Ya'ni tarbiyani kerakli joyda va kerakli insonlarga berish haqida aytib o'tilgan. Ko'pchiligimiz o'ylaymizki, tarbiya faqatgina o'qituvchilar tomonidan, uyda esa ota onalar tomonidan o'rgatiladigan jarayon. Lekin aslida tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tartib topdirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tartib topdirishda yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Bunda nafaqat ota-onaning va o'qituvchilarning balki jamiyatning o'rni ham beqiyosdir.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya jarayonlarini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Uni rivojlantirishda birinchi qadam ta'lim muassasalari va oliy ta'lim yurtlari hisoblanadi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish va ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi va unda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda 2020-2021-o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021-2022-o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Tarbiya ma'lum bir muddat ichida o'rganib va o'rgatib bo'linadigan jarayon emas. Shuning uchun bu jarayon bolalarni maktabda ketishi bilanoq boshlanadi va uni tamomlagunicha va undan keyin ham davom etadi. Shuningdek, bu jarayon-o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etuvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiyaning asosiy vazifasini tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga



xizmat qiluvchi jarayon sifatida qaraladi. Har bir tushunchani ikki tomonlama ya'ni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Uni keng ma'noda, tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishga, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilar maxsus tashkil etilgan faoliyatoni tushunish mumkin. Tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoit yaratish. Shuningdek, bobolarimiz aytishganidek ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, shuning uchun ular uzviy bog'liq.

Tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiya ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar-bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajrib va bilim o'rgana olmaydilar.

Tarbiya jarayoni

-maqsadga yo'nalganlik;

-ko'p omillik;

-jo'shqinlik;

-davomiylik;

-uzluksizlik;

-komplekslilik;

-varitlilik;



-ikki tomonli xarakter;

-natijalarning olisligi;

Tarbiya vazifalari

1. O‘z vatanini fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarni amalga oshirish quyidagilarni taqazo etadi; Milliy vatanparvarlik, o‘z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg‘usi; Millatlar aro madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.
2. Shaxsning ma’naviyatini shakllantirish. Ma’naviyat kishining ichki dunyosi bo‘lib, uning jamiyat va tabiatdagi “men”i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi.
3. Mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmatga va ijtimoiy psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.
4. Ruhiy - jismoniy sog‘lomlikni tarbiyalash. Bu axloqiy-hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish meyorida uzoqlashish ketishga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini shakllantirishdir.
5. Kishining tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish. Ekologik fojia muammosi davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Tarbiyani tashkil etish shakllari

Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari:

- milliy tarix va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an’analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;
- milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo‘lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.



Tarbiya prinsiplari

Tarbiya prinsiplari - bu umumiy qoida bo'lib unda tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish mazmuni, metodlari shakllariga bo'lgan asosiy talablar aks etgan. Ta'lim prinsiplaridan farqli ravishda ular o'qituvchilar tomonidan tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish mazmuni, metodlari shakllariga bo'lgan asosiy talablar aks etgan.

Tarbiya jarayonining mazmuni - bu bilimlar, e'tiqotlar, ko'nikmalar, sifatlar, shaxs qiyofasi, axloqning barqaror odatlari sistemasi bo'lib, tarbiyalanuvchilar qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ularni egallab olishlari zarur.

Tarbiya metodlarining tavsiflanishi.

Ijimoiy ongni shakllantirish;

Ijtimoiy axloqni shakllantirish;

Rag'batlantirish va jazolash;

O'z-o'zini idora qilish va tarbiyasi tushuntirish;

Suhbat,

Hikoya,

Namuna,

O'rnak,

Taqlid,

Havas qilish kabilar.



Masala-mashq, amaliy ishlar bajarish, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish h.k. Ma'naviy va moddiy rag'batlantirish va jazolash. Shaxsiy vazifa, o'zini-o'zi nazorat, o'zi-o'ziga hisob berish, o'zi-o'ziga baho berish orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarning bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib, bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Tarbiya metodlari turlar.

Uqtirish, o'git-nasihat, tushuntirish, suhbat, hikoya

Iltilos qilish, istak bildirish, maslahat berish, nasihat, namuna, ibrat ko'rsatish, ishonitirish, ishonch bildirish, undash, ko'ndirish, talab qilish, buyruq berish, mashq qildirish, ma'qullash, ko'ngil ko'tarish. O'zini-o'zi idora qilish, va tarbiyalash, Duo qilish, olqishlash, uzr yoki kechirim so'rash. Jazolash, koyish, po'pisa qilish, qizartirish, uyaltirish, tanbeh berish.

Rag'batlantirish, ma'qullash, maqtash, dalda berish, olqishlash kabi turlaridan keng foydalanish. Biz ularning ma'naviy-axloqiy va estetik tavsifini ochib berishga harakat qilamiz. Model shaxs xulq-atvoriga, odob axloqiy va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishdir.

METODLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachining o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi



samarali va samarasiz deb baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umumiy mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" R.Mavlonova B.Normurodova, N.Rahmonqulova
2. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S., Baxronova A. .
3. B. X. Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
4. J. Xasanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent - 2021
5. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
6. Ismoilova Z.K. Pedagogika. Toshkent, MOLTUA, 2008
7. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., "Fan va texnologiya", 2008
8. Hoshimov K. Va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T., O'qituvchi, 1996.